

**“KO`CHISH SAMARASI”NING NARXLAR BARQARORLIGIGA
TA’SIRI VA UNI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TA’SIRINI
KAMAYTIRISH**

Annotatsiya. Inflyatsiya - bu iqtisodiy hodisa bo'lib, u tovarlar narxining oshishi, shuningdek pul birligining sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan tavsiflanadi. Inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi omillardan biri bu milliy valyutaga nisbatan valyuta kursining o'zgarishi. Monetar organlar qo'lidagi mavjud monetar instrumentlardan foydalanib valyuta operatsiyalar orqali valyuta kurslarini boshqarish imkoniyatga ega. Bozorda chet el valyutasi hajmining pasayishi va valyuta kursining oshishi eksportchilar tomonidan mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishga yordam beradi, ammo import qilinadigan tovarlar narxini oshiradi. Iqtisodiy adabiyotlarda valyuta kursining o'zgarishi va uning inflyatsiyaga ta'siri “transfer effekti” deb nomlanadi. “Transfer effekti” inflyatsiya jarayoniga har xil darajada ta'sir qiladi, barchasi valyuta kursining o'zgarishi va inflyatsiya sabablariga bog'liq.

Kalit so'zlar. Valyuta kursi, inflyatsiya, ko'chish samarasi, eksport, import, narx, raqamlashtirish.

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy siyosat sharoitida aksariyat mamlakatlar ochiq iqtisodiy siyosat yuritishmoqda. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining drayveri sifatida ko'rishimiz mumkin. Milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiy aloqarni tarkibiy qismi bo'lar ekan bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro darajada munosabatlarni o'rnatishiga sabab bo'ladi. Sh.Shodmonov muallifligida yozilgan Iqtisodiyot nazariyasi darsligida xalqaro iqtisodiy aloqalar tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi, kapital va chet el investitsiyalarining harakati, ishchi kuchi migratsiyasi, ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi, fan va texnika sohasidagi ayirboshlash, valyuta-kredit munosabatlari shakllarda namoyon bo'ladi.¹

Iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayib borishi bu aloqalarni xalqaro darajada amal qilishini hamda ularni tartibga solishni muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatlararo olib boriladigan iqtisodiy munosabatlarda valyuta siyosati va uni iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq qilish hozirgi kunda dolzarb mavzu bo'lib qo'lmoqda. Tadqiqotning maqsadi valyuta kursining o'zgarishini inflyatsiyaga ta'sirini o'rganish va uni raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'sir darajasini kamaytirish. Tadqiqotning maqsadlarida kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilanadi mamlakatda valyuta kursining o'zgaruvchanlik darajasini hamda inflyatsiya dinamikasini o'rganish, raqamlashtirish natijasida valyuta kursini tebranishini narxlar barqarorligini ta'minlashda boshqarish mexanizmlarini o'rganish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda har bir mamlakat valyuta munosabatlarini yo'lga qo'yishni hamda barqaror valyuta siyosatini yuritishini taqazo etadi.

Valyuta siyosati mamlakatning iqtisodiy siyosatning ajralmas qismidir. Bu siyosat yordami bilan xalqaro darajada milliy iqtisodiyotning eksport va import operatsiyalari, kapital va chet el investitsiyalarning harakati, xalqaro kredit munosabatlari tartibga solinadi. Bundan tashqari valyuta kurslarini o'zgartirish orqali mamlakatda monetar siyosatini yuritish va makroiqtisodiyotni tartiblash vositasi hisoblanadi.

¹ Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Zamin nashr”, 2021. - 770 bet.

Valyuta kursi deb bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi tushuniladi. Milli darajada yuzaga kelgan o'zgarishlar valyuta kurslariga ta'sir qilib uning dinamikasini ta'minlaydi.

Milliy valyutaning xorijiy mamlakatlarda pul birligiga nisbatan kurslariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. To'lov balansining holati;
2. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta strukturasi;
3. Xorijiy valyutaga bo'lgan talab;
4. Inflyatsiya darajasi;
5. Foiz stavkalari;
6. Davlat byudjetining holati;
7. Valyuta bozorida taklif (valyuta intervensiyasi);
8. Mamlakat iqtisodiyotining raqamlashtirish darajasi va boshqalar.

Valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiy agentlar hamda mamlakat iqtisodiy jarayonlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti inflyatsiya jarayonlari oldida juda zaifdir. Milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursining pasayishi mamlakatda inflyatsiya darajasining oshishiga o'z hissasini qo'shadi.

Valyuta kursi pul-kredit siyosati inflyatsiyaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy kanallardan biridir bu uzatish (transmission) mexanizmi orqali namoyon bo'ladi.

Inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, ikki mamlakatning "mahalliy" inflyatsiyasi o'rtasidagi farqni hisobga olgan holda, biz real valyuta ayirboshlash kursini hisoblashimiz va ushbu mamlakatlar valyutalari o'rtasidagi valyuta almashuv kursining mumkin bo'lgan dinamikasini prognoz qilishimiz mumkin. Biroq, inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida teskari bog'liqlik ham mavjud. Milliy valyutaning iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan chet el valyutasiga nisbatan qadrsizlanishi milliy valyutaning inflyatsiya dinamikasini bashorat qilishga imkon beradi¹.

Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol tovarlari narxlariga valyuta kursining o'zgarishi "ko'chish samarasi", "transfer effekti" deb keltirilgan. Ushbu ta'sir mamlakatda inflyatsiya ko'rsatkichlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kursining tebranishlarining inflyatsiyaga ta'sir qilish mexanizmi shundan iboratki, milliy valyutaning qadrsizlanishi natijasida milliy valyutada ko'rsatilgan import qilinadigan tovarlar narxlarining o'sishi kuzatiladi. Bundan tashqari, import qilingan xom ashyo va materiallar yordamida ishlab chiqarilgan mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarning qiymati o'zgaradi.²

Ko'chish samarasiga tashqi savdning ochiqqligi, import tovarlarining iste'moldagi ulushi, mamlakatning global qiymat zanjirlariga qo'shilishi, xalqaro hisob-kitoblarda qaysi xorijiy valyutalardan foydalanishi va boshqa omillar ta'sir qiladi.

XVJ iqtisodchilari tomonidan 1990 yildan 2022 yilgacha bo'lgan 46 rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ma'lumotlarini o'rganib, kursni narxlarga o'tkazish effekti qanday o'zgarishini tadqiq qilishdi. Xususan, ularning hisob-kitoblariga ko'ra, milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan 1 foizga pasayishi bir oy ichida import qilinadigan tovarlar narxlariga o'rtacha 0,7 foizni tashkil etadi. Ammo ichki narxlar umuman oy davomida qo'shimcha 0,05% va yil davomida 0,16% ga o'sishi kuzatildi. Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy valyutaning zaiflashuvining ta'siri kamroq - yiliga ichki narxlarning qo'shimcha o'sishining 0,08%, rivojlanayotgan mamlakatlarda - ko'proq, ya'ni 0,3%ga teng bo'lgan. Bundan tashqari, mamlakat import hisob-kitoblarida dollar ulushi va iqtisodiyotni dollarlashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, narxlar dinamikasida o'zgarish shunchalik kuchli bo'lgan.

¹ Учебное пособие по финансовой грамотности. [Электрон. ресурс] – Режим доступа: <https://finuch.ru/lectures/9228>

² Бадасен П.В., Картаев Ф.С., Хазанов А.А. Эконометрическая оценка влияния валютного курса на динамику выпуска. Деньги и кредит. 2015;(7):41–49.

Adabiyotlar tahlili

Valyuta kursining o'zgarishi inflyatsion jarayonlarga ta'siri xorijda J. Keyns, T.Swan, J.Fleming, M.Fridman, A.Marshall, A.Lerner, R.Dornbush, J.Frankel, M.Taylorlarning ilmiy qarashlari iqtisodiy adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarining iqtisodchi olimlari, jumladan, A.Bojehkova, S.Borisov, L.Krasavina, S.Moiseev, A.Movsesyan, P.Truninlar tomonidan valyuta siyosatini yuritish, shakllantirish va tartibga solish masalalari tadqiq qilingan.

Valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish, milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash va uning erkin konvertatsiyasini joriy qilish masalalari, pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish, valyuta kursi va monetar ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariya va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar mamlakatimizning bir qator iqtisodchi olimlari, xususan, Sh.Abdullaeva, A.Bekmurodov, T.Boboqulov, F.Mullajonov, M.Nurmuratov, O.Namozov, Z.Berdinazarov, E.Xoshimov, N.Haydarovlar tomonidan olib borilgan.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini tavsiflovchi bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mavjud. Bu ko'rsatkichlar tizimida inflyatsiya kategoriyasi muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchilar orasida ushbu iqtisodiy kategoriyaga nisbatan turli nuqtai nazarlar mavjud, inflyatsiya:

- o'rtacha narx darajasining oshishi;¹
- moliyaviy kanallarni qog'oz pullar bilan to'ldirish orqali pulning qadsizlanishi, sotib olish qobiliyatining pasayishi;²
- bu nafaqat pul hodisasi, balki real iqtisodiyot bilan ham bog'liq bo'lib, pulning qadsizlanishi va uning sotib olish qobiliyatining pasayishi nafaqat narxlarning oshishi, balki tovar tanqisligi tovarlar va xizmatlar sifatining pasayishi bilan ham bog'liq.³

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, inflyatsiya iqtisodiy hodisa bo'lib, u bir tomondan tovarlar va xizmatlar narxlari darajasining oshishi, boshqa tomondan muomalada pulning haddan tashqari ko'pligi sababli uning sotib olish qobiliyatining pasayishi va qadsizlanishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda valyuta kursining o'zgarishi va uni narxlarga ta'siri, ya'ni ko'chish samarasini birinchi marta taniqli iqtisodchi olim R.Dornbush o'zining tadqiqotlarida tushuntirishga harakat qilgan. Transfer effektini zamonaviy yondashuvi esa Gopinath ilmiy asarlarida uchratishimiz mumkin.

Valyuta kursini narxlarga o'tkazishning ta'siri shuni anglatadiki, milliy valyutaning o'zgarishi ma'lum bir iqtisodiyotning ichki narxlar darajasida aks etadi.

Bundan tashqari, agar milliy iqtisodiyotda ichki narxlar darajasi valyuta kursining zarba (shok)larga to'liq moslashsa va ko'chish samarasi 100 % teng bo'lsa, to'liq ko'chish effektidan dalolat beradi. Amalda, transfer effekti ko'pincha qisman yoki to'liq emas, ya'ni uning qiymati 100% dan kam.

Transfer samarasini ichki narxlarga ta'sir miqyosi turli mamlakatlarda har xil darajada amal qiladi. Bunga milliy iqtisodiyotda bozor tizimining rivojlanish (infrastruktura), tarmoqlarning monopollashish darajasi, iqtisodiy agentlarning iste'mol xususiyatlari (iste'molchilarning iste'mol qilayotgan tovar va xizmatlar majmuasida import tovarlarining ulushi), mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining holati va xususiyati (masalan, mamlakatning pul-kredit siyosat, monetar rejimi, to'lov va tashqi savdo balansi ko'rsatkichlari va ularning tarkibi hamda o'zgaruvchanligi) ostida shakllanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qaraganda valyuta kursining o'zgarishi ko'chish samarasi bir-biridan farq qiladi. Rivojlanayotgan davlatlar

¹ Ч. Дж. Вульффер. Энциклопедия банковского дела и финансов: Пер. с англ. Самара. Изд-во «Федоров», 2000. С. 581;

² Большой экономический словарь / Под. ред. А. Н. Арзилина. – 7 – е. издание, доп. М.: Институт новой экономики, 2008. С. 379

³ Деньги, кредит, банки: Учеб. пособие / Под. ред. О. И. Лаврушина. М.: Кронус, 2005. С. 99

ko'proq tashqi bozor konyukturasi va to'lov balans holatiga bog'langan bo'lib yuzaga kelgan o'zgarishlarga o'ta sezuvchan. Shuning uchun bu mamlakatlarda ko'chish samarasi rivojlangan davlatlardan qaraganda yuqori. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya darajasi qisqargan sari narxlarning elastiklik darajasi valyuta almashuv kursiga nisbatan sezilari darajada pasayadi. Transfer effekt ko'lami milliy iqtisodiyotning holatiga va tarmoqlarning tarkibiy o'zgarishlariga bog'liq bo'ladi. Mamlakatda Markaziy bank tomonidan qanday monetar rejim olib borilishi ko'chish samarasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi (masalan, inflyatsiyani targetlash rejimida valyuta kursining o'zgarishi ichki narxlarga ta'sirini zaiflashtiradi).

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida metodologik jihatdan statistik usullardan, xususan, taqqoslash, o'rtacha miqdorlarni aniqlash, abstraksiya usullardan foydalanildi. Valyuta kursini davrlar mobaynida o'rtacha qiymati hisoblandi va tahlil qilindi.


Natijalar

Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali ko'chish samarasi ta'siri vaqt o'tishi bilan kamayadi.

Rivojlanayotgan va bozor tizimi shakllanayotgan mamlakatlarida ko'chish samarasi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqori¹.

So'nggi 10-15 yil ichida deyarli barcha mamlakatlarda inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasidagi bog'liqlik pasaygan. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'lmoqda:

- mamlakatda umumiy inflyatsiya darajasining pasayishi²;
- nominal valyuta kursining o'zgaruvchanligini kamayishi³;
- inflyatsion kutishlarning pasayishi va pul organlari tomonidan nazoratning yaxshilanishi, shuningdek umumiy makroiqtisodiy barqarorlik darajasining o'sishi⁴.



1 – rasm. Valyuta kursining o'zgarishi tovar va xizmatlar narxlariga ko'chish kanallari (muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

¹ Mihaljec D., Klau M. A Note on the Pass-through from Exchange Rate and Foreign Price Changes to Inflation in Selected Emerging Market Economies / BIS Working Papers No 8. 2001.

² Taylor J. Low Inflation, Pass-through and the Pricing Power of Firms // European Economic Review. 2000. Vol. 44, No 7. P. 1389–1408.

³ Campa J. M., Goldberg L. S. Op. cit.

⁴ Mishkin F. S. Exchange Rate Pass-through and Monetary Policy: Speech delivered at the Norges Bank Conference on Monetary Policy. Oslo, Norway, March 7, 2008.

Valyuta kurslarining o'zgarishi narxlar darajasiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Valyuta kursining o'zgarish darajasi import va eksport kanallari orqali narxlarga bevosita ta'sirida namoyon bo'lsa, kutilmalar kanali orqali bilvosita ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Valyuta va pul-kredit siyosati mamlakatning bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy siyosat bo'lganligi sababli, ularning asosiy maqsadi milliy valyutaning barqarorligiga erishish, to'liq bandlik sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

Valyuta siyosatida valyuta kurslarini o'rnatish muhim o'rin tutadi. Valyuta kurslarining barqarorligi milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Professor Z.Berdinazarov fikriga ko'ra, valyuta kursining barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga milliy va chet el foiz stavkalari o'rtasidagi farq, shu jumladan joriy va kutilayotgan foiz stavkalari o'rtasidagi farq, pul taklifi (keng pul massasi) hajmi, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajalari, xalqaro pul o'tkazmalari (transfertlar), sof eksport, YaIM va yalpi iste'mol hajmi o'rtasidagi farqlarni kiritish mumkin.¹

Valyuta kurslarini tartibga solish davlat pul-kredit siyosatining vositalaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, valyuta kurslarining o'zgarishi mamlakatdagi inflyatsiya jarayonlariga ta'sir qiladi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida 2023 yil yanvar-dekabr oylarida valyuta kurslari o'zgarishi va oylik inflyatsiya darajasi ko'rsatkichlari keltirilgan.

1 - jadval

2023 yil yanvar-dekabr oylari uchun valyuta kursi va inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi (% hisobida)

Oylar	Valyutaning o'rtacha kursi ² , 1\$ = so'm	Valyuta kursining o'zgarishi darajasi, %	Inflyatsiya darajasi, ³ %
Yanvar	11274,20	0,53	0,8
Fevral	11294,91	0,18	0,5
Mart	11384,62	0,79	1,0
April	11411,72	0,24	0,8
May	11406,92	-0,04	0,5
Iyun	11444,14	0,32	-0,3
Iyul	11544,14	0,87	-0,2
Avgust	11854,06	2,68	0,5
Sentyabr	12132,52	2,35	0,2
Oktyabr	12197,15	0,53	1,0
Noyabr	12266,15	0,56	1,1
Dekabr	12309,39	0,35	1,2


Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin, valyuta kursini o'sish dinamikasi 2023 yil yanvar – may oylarida inflyatsiya darajasidan o'sishidan past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, lekin iyun – avgust oylarida so'mga nisbatan AQSH dollarini valyuta kursi shiddat bilan oshib borgan bunga sabab shu davrda valyuta bozorida dollarga bo'lgan talabning ortishidir, ya'ni jahon geosiyosatining o'zgarishi natijasida logistik zanjirlarini uzilishiga olib keldi, bu esa eksport va import qiluvchilarda mahsulot yetkazib berishda qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirdi. Shu davrda milliy valyutamiz so'm AQSH dollariga nisbatan yil boshidan 7,6 % yoki 858,32 so'mga arzonlashgan. Milliy valyuta kursining dinamikasi barqaror bo'lib qoldi, ammo 2023 yilda nisbatan yuqori devalvatsiya kuzatildi, milliy valyutalarning devalvatsiyasini kuchayishi mamlakatimiz savdo sheriklari Rossiya, Turkiya, Hitoy milliy valyutalarining dollarga nisbatan qadrsizlanishi va boshqa ichki omillar orqali yuzaga

¹ Z.U.Berdinazarov. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirish. DSc ilmiy darajasi dissertatsiyasi. 145 bet.

² <https://cbu.uz/ru/arkhiv-kursov-valyut/>. Valyuta kursi har bir oy mobaynida valyuta savdosi natijasida o'rtacha ko'rsatkichi olingan. Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

³ <https://cbu.uz/ru/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari

kelgan. Bu jarayon so'm kursining jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan tashqi o'zgarishlarga moslashuvi sifatida baholanishi mumkin.



1 – rasm. 2022 yilda O'zbekistonda valyuta kursi va inflyatsiyaning o'zgarishi.

Milliy valyutamizning yozgi davrda dollar kursiga ko'ra pasayishi oktyabr – dekabr oylarida import tovarlarni narxining ko'tarilishi hamda inflyatsiyaning valyuta kursiga nisbatan yuqori bo'lganligiga olib keldi. Umuman olganda, 2023 yilda milliy valyuta kursining devalvatsiyasi 7,6 %ni tashkil etdi va yillik inflyatsiya indeksdan past darajada shakllandi.

Mamlakatimizda 2023 yilning iyun va iyul oylarida inflyatsiyaning o'rniga deflyatsiyaga kuzatildi. Buni Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, Respublika bozorlariga yangi mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kirib kelishi bilan izohlashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, valyuta kursi o'zgarishining bevosita va bilvosita ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Birinchi holda, import qilinadigan tovarlarning yakuniy iste'moli narxlarining oshishi, ikkinchisida-chet eldan olib kelingan va ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo narxlarining o'sishi.

Valyuta kursining keskin o'zgarishi bilan asosiy inflyatsiyaning tezlashishini tahlilda kuzatilgan bo'lsa-da, ba'zi davrlarda valyuta kursining o'zgarishiga ma'lum kechikishlar ta'sir ko'rsatishgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, valyuta kursining 1 foizga qadrsizlanishi asosiy inflyatsiyaning 0,28 foizga tezlashishiga olib keladi, bunda ko'chish samarasi uzoq muddatli istiqbolda 28 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda valyuta kursining o'zgaruvchanligining pasayishi va barqarorlashishi inflyatsiyaga qarshi kurashda ijobiy omil hisoblanadi.

Valyuta siyosati va valyuta munosabatlarini tartibga solish hamda nazorat qilish masalalarida huquqiy – meyyoriy asoslarini takomillashtirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir sohada muhim ahamiyatga ega bo'lganidek, valyuta siyosati sohasida ham ishlab chiqilayotgan va qabul qilinayotgan huquqiy – meyyoriy asoslar (hujjatlar) o'z mazmuni va mohiyati hamda ahamiyati ko'ra o'zgarib borayotgan global iqtisodiy vaziyatlarining kun tartibiga javob berishi lozim.

O'zbekistonda valyuta siyosati va valyuta munosabatlarini tartibga solish bo'yicha huquqiy – meyyoriy baza yaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi (2003 yil yangi tahrirda), «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki»"gi (1995 yil),

«Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi (1996 yil yangi tahrirda), «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (2000 yil yangi tahrirda), «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi (1996 yil), «Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida»gi (1996 yil), «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998 yil), «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida (2019 yil) qonunlar shular jumlasidandir.

O'tgan davrlar mobaynida mazkur qonunchilik asoslariga tayangan holda ushbu sohada 200 dan ortiq qonun osti meyyoriy hujjatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmoyishlari, Markaziy bankning qaror va farmoyishlari, nizomlar, yo'riqnoma va tartiblar qabul qilingan.

Mamlakatimizda valyuta siyosati va munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish va bozor mexanizmlarini joriy qilish, ichki narxlar barqarorligini ta'minlash, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora – tadbirlar to'g'risida»gi PF – 5177 – sonli farmoni ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni izchilligini oshirishga zamin yaratdi.

Muhokama

Valyuta kursi mamlakatdagi inflyatsiyaga ta'sir qiladi, buning uchun pul organlari ushbu omilning inflyatsiyaga ta'sirini neytrallashtirish yoki kamaytirish choralari ko'rishlari kerak. Birinchidan, Markaziy banklar samarali pul-kredit va valyuta siyosatini olib borishlari, ya'ni milliy valyutamizning chet el valyutasiga nisbatan barqarorligini ta'minlashlari lozim. Bunga valyuta intervensiyalari orqali erishish mumkin, buning natijasida milliy valyutamizning dollarga nisbatan kursini oshirish va valyutaga bo'lgan talabni qondirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchidan, valyuta almashuv kursiga e'tibor qaratib, inflyatsiyani cheklashga ta'sir qilishimiz mumkin, bunda valyuta targetlashdan inflyatsion targetlashga o'tish. Valyuta kursining oshishi (to'g'ri kotirovkada) milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini pasaytiradi va aksincha, valyuta kursining pasayishi uning o'sishini ta'minlaydi. Valyuta kursini targetlash orqali inflyatsiyani jilovlashga ta'sir etish mumkin bo'lgan chora-tadbirlar majmuini o'zida ifoda etadi.¹

Uchinchidan, chet el valyutasiga nisbatan talabni kamaytirish, buning uchun xorijdan import qilinayotgan xomashyo va resurslar salmog'ini qisqartirish. Mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanish import resurslariga bo'lgan talabini kamaytiradi. To'rtinchidan, import oziq-ovqat mahsulotlarini hissani kamaytirish. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda imtiyozlarni berish va rag'batlantiruvchi tizimni yaratish. Qishloq xo'jaligiga mahsulotlarni qayta ishlashda zamonaviy va ilg'or innovatsion texnologiyalarni kiritish. Import qilinayotga oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibini o'rgansak, aksariyat ushbu mahsulotlar mamlakatimizda ham ishlab chiqarishga imkoniyatlari mavjud. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklarini va tayyorlov firmalarni hamda ushbu mahsulotlarini qayta ishlov beruvchi kichik biznes va xususiy korxonalarini bir-biriga bog'lash. Natijada ishlab chiqarish zanjiri ishga tushiriladi va import qilinadigan mahsulotlar o'rnini bosadigan iste'mol tovarlari ishlab chiqariladi. Beshinchidan, import qilinadigan tovarlarga bojlarni bosqichma-bosqich oshirish. Boshlanish davrida narxlarning o'sishi kuzatilsada bu bizning oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmog'i uchun manfaat omili bo'lib xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa kelajakda 80-90 % oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, natijada import mahsulot hajmida oziq-ovqat hissasi kamayishiga, chet el valyutasiga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Shuningdek, ichki bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish aholining ushbu tovarlarga bo'lgan talabini qondiradi va shu bilan tayyor mahsulotni xorijga eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

¹ M.T.Yaxshiyeva. Monetar siyosat nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 98 bet

Bazaviy inflyatsiyaga almashuv kursining oziq-ovqat mahsulotlariga ta'siri bir qator sabablarga bog'liq. Birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari (un, yog', shakar, kartoshka, go'sht mahsulotlari) kundalik ehtiyoj mahsulotlari hisoblanadi. Ikkinchidan, bu mahsulotlarga talab noegiluvchan, ya'ni narxlarning o'zgarishi (bizning misolimizda agar dollar kursi o'sishi kuzatilsa, bu mahsulotlarning bozordagi narxi oshadi) ushbu mahsulotlarning talabini o'zgartirmaydi. Uchinchidan, mamlakatimizda uy xo'jaliklarning iste'mol xarajatlarining tarkibida oziq-ovqat xarajatlarining ulushi 40-50 %ni tashkil etishidir. Albatta bu yuqori ko'rsatkich hisoblanib, inflyatsion jarayonga ijobiy ta'sirga ega.

Bundan tashqari mahalliy bozorlarimizda yuqorida qayd etilgan iste'mol tovarlarining asosiy turlarining import hissasi yuqoriligicha qolmoqda. Import tovarlarning narxi to'g'ridan-to'g'ri valyuta kursiga bog'liq, ya'ni almashuv kursi o'sishi bozorda import tovarlarning narxining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursini belgilashida muhim ta'sir etuvchi omil bu iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasidir. Raqamlashtirish, shu jumladan moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish (FinTech), onlayn platformalar va elektron to'lov tizimlari valyuta kurslariga bir necha muhim jihatlarida ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Savdo hajmi va tezligini oshirish: raqamlashtirish jarayonlarni avtomatlashtirish va ma'lumotlarning mavjudligi tufayli valyuta oqimlari savdosi hajmi va tezligini oshirishga imkon beradi. Bu valyuta kurslarida tez-tez va qisqa muddatli o'zgarishlarga olib keladi.

2. Elektron tijoratni rivojlantirish: elektron tijorat savdogar (treyder)lar orasida tobora ommalashib bormoqda. Onlayn platformalar valyuta bozorlarida tez va qulay valyuta savdosi imkoniyatini beradi, shu bilan u valyutalarning talab va taklifiga hamda ularning kurslariga ta'sir qiladi.

3. Avtomatlashtirilgan algoritmik savdo tizimlari: algoritmik savdo tizimlarining rivojlanishi ma'lumotlarni tahlil qilish va inson huquqsiz operatsiyalarni amalga oshirish, ayniqsa yuqori o'zgaruvchanlik sharoitida valyuta kurslarining tezroq va keskin harakatlanishiga olib keladi.

4. Ko'proq ma'lumot olish imkoniyati: Internet va raqamli platformalar valyuta kurslariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan dunyo voqealari, iqtisodiy ko'rsatkichlar va yangiliklar haqidagi ma'lumotlardan keng foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu yangiliklar va voqealar bozorining tezroq o'zgarishiga sabab bo'ladi.

5. Kriptovalyutalar va raqamli aktivlarning rivojlanishi: kriptovalyutalar va boshqa raqamli aktivlarning joriy etilishi investitsiya va savdo uchun yangi muqobil pul vositalarni yaratadi, bu esa ishonchli valyutaga bo'lgan talabni o'zgartirishi va ularning kurslariga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, moliya bozorlarini raqamlashtirish o'zgaruvchanlikni kuchaytiradi va valyuta kurslarining o'zgarishini tezlashtiradi, ma'lumotlarning tezroq uzatilishi, yangi savdo vositalarining rivojlanishi va savdo hajmining oshishi sabab bo'ladi.

Xulosa

Valyuta kursining ichki narxlarga, xususan, inflyatsiyaga ta'siri, ya'ni ko'chish samarasi muhim tadqiqot masalaridan biri hisoblanadi. Buning ahamiyati raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada oshib bormoqda. Chunki transfer effekti milliy iqtisodiyotni tashqi o'zgarishlarga nisbatan maxsus sezgirlik indikatorini bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda bu omil inobatga olinishi lozim.

Monetar organlari milliy valyuta qiymatining haddan tashqari qadrsizlanishining oldini olishlari kerak, chunki valyuta kursining pasayishi inflyatsiya darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi. Valyuta intervensiyasini davom ettirish va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida valyuta targetlash rejimini qo'llash hamda keyinchalik inflyatsion targetlashga o'tish va samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Milliy iqtisodiyot doirasida tezkorlikda qishloq xo'jalik sohasiga sanoatni integratsiyasini chuqurlashtirish. O'zbekistonda bu boradagi salohiyatdan hali to'liq foydalanilmagan bo'lsa-da, mamlakatda qayta

ishlash sanoatini rivojlantirish va import qilinadigan mahsulotlar sonini kamaytirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Kichik va o'rta biznes tadbirkorlariga moslashuvchan soliq solish va kreditlash tizimini joriy etish orqali import o'rnini bosuvchi tovarlarni yaratish iste'mol tovarlarining ko'payishini ta'minlaydi, natijada import tovarlariga bo'lgan talab kamayadi va chet el valyutasiga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi, bu esa narxlarning barqarorligiga hissa qo'shadi.

Shu bilan birgalikda raqamlashtirilgan moliyaviy texnologiyalardan unumli foydalanishimiz lozim. Bu texnologiyalar orqali biz valyuta kurslarining o'zgarishini mamlakatimiz inflyatsiya darajasiga ta'sirini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. Учебное пособие по финансовой грамотности. [Электрон. ресурс] – Режим доступа: <https://finuch.ru/lectures/9228>
2. Бадасен П.В., Картаев Ф.С., Хазанов А.А. Эконометрическая оценка влияния валютного курса на динамику выпуска. Деньги и кредит. 2015;(7):41–49.
3. Ч. Дж. Вульффер. Энциклопедия банковского дела и финансов: Пер. с англ. Самара. Изд-во «Федоров», 2000. С. 581;
4. Большой экономический словарь / Под. ред. А. Н. Арзилина. – 7 – е. издание, доп. М.: Институт новой экономики, 2008. С. 379
5. Деньги, кредит, банки: Учеб. пособие / Под. ред. О. И. Лаврушина. М.: Кронус, 2005. С. 99
6. Mihaljec D., Klau M. A Note on the Pass-through from Exchange Rate and Foreign Price Changes to Inflation in Selected Emerging Market Economies / BIS Working Papers No 8. 2001.
7. Taylor J. Low Inflation, Pass-through and the Pricing Power of Firms // European Economic Review. 2000. Vol. 44, No 7. P. 1389–1408.
8. Campa J. M., Goldberg L. S. Op. cit.
9. Mishkin F. S. Exchange Rate Pass-through and Monetary Policy: Speech delivered at the Norges Bank Conference on Monetary Policy. Oslo, Norway, March 7, 2008.
10. Z.U.Berdinazarov. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirish. DSc ilmiy darajasi dissertatsiyasi. 145 bet.
11. <https://cbu.uz/ru/arkhiv-kursov-valyut/>. Valyuta kursi har bir oy mobaynida valyuta savdosi natijasida o'rtacha ko'rsatkichi olingan. Jadval muallif tomonidan tuzilgan.
12. <https://cbu.uz/ru/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari
13. M.T.Yaxshiyeva. Monetar siyosat nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 98 bet